



Religious tolerance and interethnic harmony are guarantees of a stable society

Shokhrukh ERGASHEV¹

Gulistan State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

Tolerance,
ethnic conflicts,
"Strategy of Actions",
"Development Strategy",
"Uzbekistan 2030",
civic position,
globalization,
ideological threats,
interregional cooperation,
human dignity,
New Uzbekistan.

ABSTRACT

This article analyzes the policies and reforms implemented in Uzbekistan since the years of independence to ensure religious tolerance and interethnic harmony. Using historical, statistical analysis, and comparative methods, the study examines the state's attitude towards religion and the activities of national cultural centers and religious organizations. The research aims to identify existing problems in ensuring social stability and propose practical solutions.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss12/S-pp289-293>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik barqaror jamiyat kafolati

Kalit so'zlar:

Tolerantlik,
etnik ziddiyatlar,
"Harakatlar strategiyasi",
"Taraqqiyot strategiyasi",
"O'zbekiston 2030",
fuqarolik pozitsiyasi,
globallashuv,
g'oyaviy tahdidlar,
mintaqalararo hamkorlik,
inson qadri,
Yangi O'zbekiston.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash yo'lida amalga oshirilgan siyosat va islohotlar tahlil qilingan. Tarixiylik, statistik tahlil va taqqosiylik metodlari yordamida davlatning dinga munosabati, milliy madaniy markazlar va diniy tashkilotlar faoliyati o'rganilgan. Tadqiqot ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda mavjud muammolarni aniqlash va amaliy yechimlar taklif qilishga qaratilgan.

¹ Master degree student, Gulistan State Pedagogical Institute. E-mail: shohruhergashev618@gmail.com

Религиозная толерантность и межнациональное согласие - залог стабильного общества

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

толерантность,
этнические конфликты,
"Стратегия действий",
"Стратегия развития",
"Узбекистан-2030",
гражданская позиция,
глобализация,
идеологические угрозы,
межрегиональное
сотрудничество,
человеческая ценность,
Новый Узбекистан.

В данной статье анализируются политика и реформы, осуществляемые в Узбекистане с целью обеспечения религиозной толерантности и межнационального согласия с момента обретения независимости. С применением исторического и статистического анализа, а также сравнительных методов изучены отношение государства к религии, деятельность национальных культурных центров и религиозных организаций. Исследование направлено на выявление существующих проблем в обеспечении социальной стабильности и предложение практических решений.

DOLZARBLIGI

Tarixdan bilamizki, ko'pmillatli mamlakatlarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va etnik nizolarni oldini olish, ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan. Lekin bu jihatlarga boshqaruv elitalari har doim ham e'tibor qaratishmagan. Buning natijasida mamlakatda diniy fanatizm va etnik nizolar avj olib, jamiyat birligiga putur yetgan. Jumladan, Sohibqiron Amir Temur davrida Markaziy Osiyo mintaqasida ijtimoiy barqarorlik ta'minlagan bo'lsa, XVI asrdan boshlab xonliklarning tashkil topishi natijasida urf-odat, qadriyat va dini bir xil bo'lgan bu mintaqada 3 qismga ajralib ketdi. Bu jarayonlar keyingi davrlarda ya'ni mustamlakachilik davri va Sovet tuzumi davrida ham davom etganiga tarix guvoh. Jumladan Sovet ittifoqi davrida barcha millat va elatlarni mavjudligi inkor etilgan holda yagona sovet millatini shakllantirish siyosati amalga oshirilgan. Shunday ekan, hozirgi globallashuv zamonida turli xil etnik nizolar qo'zg'atuvchi tahdidlarga qarshi turmoqlik uchun yurtimizdagi mavjud tolerantlik va millatlararo hamjihatlikni ta'minlash nafaqat hukumatning vazifasi, balki har bir fuqaroning burchi va mas'uliyatidir.

METODLAR VA O'RGANILGANLIK DARAJASI

Maqolani yozishda ilmiy bilimlarning tarixiylik, statistik, taqqosiylik kabi metodlariga tayanildi. Tarixiylik metodi yordamida Amir Temur davridan to mustaqillik yillarigacha bo'lgan davrda diniy va millatlararo munosabatlarning rivojlanishi tahlil qilindi. Statistik tahlil orqali O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlar va milliy madaniy markazlar haqidagi ma'lumotlar o'rganildi. Taqqosiylik metodi asosida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar Sovet ittifoqi davridagi siyosat bilan taqqoslandi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo munosabatlarga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Jumladan olimlardan A Mo'minov, N Mamanazarov, X E Yunusova, T Jo'rayev, O Musayev, R X Murtazayeva, D Bobojonova, D Alimova, I Jabborov[1] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari diqqatga loyiqdir. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning "Turkiston umumiy uyimiz", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari" asarida, prezident Shavkat Mirziyoyevning "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo

qilamiz”, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kabi asarlarida tolerantlik va millatlararo do‘stlikni ta‘minlash va rivojlantirish bo‘yicha bir qator fikr va takliflar ilgari surilgan.

NATIJALAR

Shuni ta‘kidlash joizki, istiqlol yillaridan boshlab mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosatning maqsadi- demokratik va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat bo‘lgan. Respublikaning birinchi prezidenti Islom Karimov yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha insonlar uchun millati, dinidan qat‘iy nazar munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kafolanatlanadigan turmush darajasi va erkinliklarini yaratib berish[2] davlatning ustuvor vazifasi ekanligini ta‘kidlab o‘tgan edi. Yuqoridagi fikrlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ko‘p millatli mamlakatlarda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan eng muhim tadbirlardan biri bu jamiyatda fuqarolik prinsipini shakllantirishdir. Mustaqillik sharofati bilan O‘zbekiston Sovet tuzumi davrida butkul izdan chiqqan millatlararo munosabatlarni tiklash bo‘yicha amaliy ishlarni boshladi. Jumladan, qardosh davlatlar Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston bilan yaxshi qo‘shnichilik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Bu do‘stona munosabatlarning barchasi “Turkiston umumiy uyimiz”[3] shiori ostida amalga oshirilgani diqqatga sazovordir. Respublikaning birinchi prezidenti Islom Karimovning jamiyatda milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish va rivojlantirish va shu g‘oya asosida tolerantlik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash, [4] mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm, fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, agressiv millatchilik, etnik ziddiyatlar, barqarorlik shartlari masalalariga bag‘ishlangan bir qator ma‘ruza va fikrlarini[5] tahlil qiladigan bo‘lsak, barqaror jamiyatni shakllantirishda millatlararo hamjihatlik g‘oyalari asosiy vosita ekanligini anglashimiz mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyevning jamiyatda ko‘p millatli katta oila tuyg‘usini shakllantirish va eng avvalo, mamlakatda millati, e‘tiqodidan qat‘iy nazar faol fuqarolik pozitsiyasini targ‘ib qilish va uni yuksaltirish borasidagi fikrlari[6] bugungi va ertangi kunning ustuvor vazifalarini ko‘rsatib turibdi. Endi bevosita statistik-tahlillarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, yurtimizda hozirgi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari hamjihatlikda yashashmoqda.[7] Respublikamizda 16 ta diniy konfessiya va 2200 dan ortiq diniy tashkilot faoliyat olib boradi. Mazkur tashkilotlardan 1875 tasi Islom diniga, 33 tasi Rus Pravoslav cherkoviga, 4 tasi Yevangel xristian- baptistlar ittifoqiga, 22 tasi Yevangel Pol xristian cherkoviga, 4 tasi Yevangel - lyuteran cherkoviga, 11 tasi Yettinchi kun advintistlar cherkoviga, 5 tasi Rim-katolik cherkoviga, 7 tasi Baxay -ishonch uyushmasiga, 1 tasi Arman - apostol cherkoviga, 2 tasi rishna jamiyatiga, 2 tasi Iegovlarga, 8 tasi Iudeya jamoasiga, 60 tasi Protestantlar cherkoviga, 1 tasi Bibliya jamiyatiga, 1 tasi Golos Boji jamoasiga va yana 1 tasi Budda ibodatxonasiga tegishlidir.[8] Har yili islom bo‘lmagan diniy jamoalarning 120 dan ortiq vakillari chet elga chiquvchi, e‘tiqod qiluvchilar uchun yaratilgan barcha imtiyozlardan foydalangan holda Isroil, Gretsiya va Rossiyadagi o‘z dinlarining muqaddas joylarini ziyorat qilib kelmoqda.[9] Yuqorida keltirilgan statistik tahlillar yurtimizdagi barcha diniy konfessiyalar uchun imtiyoz va erkinlar yaratilganligini, ularning haq-huquqlari ta‘minlanganligini isbotlab turibdi. Barchamizga ayonki, mamlakatda millatlararo hamjihatlikni ta‘minlashda baynalmilal madaniy markazlarning o‘rni katta. Hozirgi kunda yurtimizda 137 ta milliy madaniy markazlar o‘z faoliyatlarini olib borishmoqda.[10] Ular o‘zlarining o‘ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandchiligini rivojlantirib jamiyatda ko‘p millatli oila tuyg‘usini shakllantirishda

salmoqli hissa qo'shishmoqda. Hozirgi globallashuv davrida davlatlarning tashqi siyosatda qo'shni va mintaqa davlatlari bilan o'zaro do'stona hamkorlikni yo'lga qo'yishi, bugungi kunning dolzarb masalasidir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, 2017-yildan boshlab O'zbekiston qo'shni va mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu davrdan boshlab Yangi O'zbekiston ochiq va pragmatik ko'rinishdagi faol tashqi siyosat yurita boshladi. Jumladan, bu davrda O'zbekiston va Janubiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida ishonchli hamkorlikni yo'lga qo'yilgani diqqatga sazovordir.[11]

MUHOKAMA

Ko'p millatli jamiyatlarda kuzatiladigan ijtimoiy muammolar va ularga amaliy yechimlar. Tarixdan bilamizki, ko'p millatli davlatlardagi ijtimoiy munosabatlar, bir millatli davlatlarnikidan keskin farq qilgan. Sababi, jamiyat ko'p millatli bo'lganidan keyin turli xil fikrlash, turli xil dunyoqarash, bo'lishi tabiiy holdir. Jamiyatda insonlarning bir-birini haq-huquqlarini mensimasligi va hurmat qilmasligi natijasida ijtimoiy tengsizlik shakllanishi ehtimoldan yiroq emas. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, Boburiylar imperiyasining shohi Avrangzeb Olamgir davrida mahalliy aholining e'tiqodi va huquqlarini e'tiborga olmaslik natijasida, musulmon turkiy aholi va mahalliy hindlar o'rtasida kuchli qarama-qarshilik yuzaga kelganligiga tarix guvoh.[12] E'tibor beradigan bo'lsak, o'tgan yaqin yillar davomida bizning jamiyatda diniy ta'limni maktab ta'lim dasturiga kiritish taklifi qizg'in bahs va muhokamalarga sabab bo'ldi. Shak-shubhasiz, Islom dini ezgulik va pok din. Lekin yurtimiz ko'p millatli va turli xil e'tiqodli ekanligini hisobga olsak, diniy ta'limni davlat ta'lim dasturiga kiritish, jamiyatda murakkab vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin. Ya'ni bu jarayonlarda boshqa din vakillarining ham haq-huquqlarini inobatga olishga to'g'ri keladi. Bu holat jamiyatda tengsizlikni yuzaga keltirib qo'yishi ehtimoldan yiroq emas. Bu jihatlarga e'tibor beradigan bo'lsak, diniy ta'lim maktab ta'limidan alohida bo'lishi, maqsadga muvofiq bo'ladi. Respublikaning asosiy millati bo'lmish O'zbeklar zimmasida, jamiyatda millatlararo totuvlik va tinchlikni saqlashdek katta mas'uliyat borligini unutmasligimiz lozim.

Xulosalar: Shuni aytish mumkinki, mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab diniy bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlik munosabatlarini rivojlantirish va buning uchun zarur bo'lgan huquqiy asoslarni yaratish jarayonlari boshlandi. Jumladan konstitutsiyaning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari va urf-odatlarini hurmat qilinishini ta'minlaydi va uning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi" deb qayd etildi. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonda millatlararo do'stlikni ta'minlashga asos bo'lib xizmat qildi. Yangi O'zbekistonni ichki va tashqi siyosatining asosiy ustuvor qoidalari quyidagi tamoyillarda belgilab qo'yildi:

- Millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar respublikaning barcha fuqarolari qonun oldida tengligi.

- Har bir fuqaroning millati va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar davlatdan moddiy va ma'naviy yordam olish huquqlari.

- Tashqi siyosatda qo'shni va mintaqa davlatlari bilan ochiq va pragmatik ko'rinishdagi hamkorlikni yo'lga qo'yish va ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz bo'layotgan davlatlarga gumanitar yordamlar ko'rsatish. O'zbekiston Afg'onistondagi murakkab vaziyat mavjud bo'lgan davrda Afg'on xalqiga beg'araz gumanitar yordamlar ko'rsatgani yuqoridagi tamoyillarning isbotidir. Respublikamizning birinchi prezidenti Islom Karimov

dinva davlat munosabatlariga doimo katta e'tibor qaratib kelgan. Respublikaning keyingi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham bu yo'lni davom ettirib 2017-2021- yillardagi Harakatlar strategiyasining beshinchi bandi "Xavfsizlik va millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish" deb nomlanib millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2022-2026- yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" "O'zbekiston 2030" strategiyalarida ham millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlashni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Yuqoridagi reja va dasturlarni tahlil qiladigan bo'lsak, yaqin kelajakda ham bu sohalar bo'yicha islohotlar davomli bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I Jabborov "O'zbek xalqi etnografiyasi" O'qituvchi -1994; D Alimova "Jadidchilik va diniy bag'rikenglik" Tafakkur-2004; Murtazayeva R X "O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik" Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma-Universitet- 2007; D Bobojonova " O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar" Toshkent-Sharq-1999; T Jo'rayev " Milliy davlatchilik: xavfsizlik va barqarorlik" Toshkent- Akademiya-2007; A Mo'minov "Millatlararo munosabatlardagi muammolarni o'rganishning dolzarb masalalari" Toshkent-Fan-1996; N Mamanazarov " Mustaqillik va milliy-etnik jarayonlar" Toshkent-2004; Yunusova X E " O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar" 2009; O Musayev "O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji" Toshkent-2016.
2. Islom Karimov " Milliy istiqlool mafkurasi -xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" Toshkent-O'zbekiston-2000,13-14-b
3. Islom Karimov " Turkiston umumiy uyimiz" Toshkent-O'zbekiston-1995,16-17-b
4. Islom Karimov " Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" Toshkent-O'zbekiston-2001, 59-61-b
5. Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid , barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" Toshkent- O'zbekiston-1997,43-84-b
6. Shavkat Mirziyoyev " Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent-2021, 305-312-b
7. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon , demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo qilamiz" Toshkent-O'zbekiston-2016, 8-9- betlar.
8. O Musayev " O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji" Toshkent-Istiqlool nuri-2016, 147-b
- 9]. Abdulxay Mo'minov, Mirzatullo Tillaboyev "Inson huquqlari " Toshkent-Adolat - 2013, 299-300-b
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yilligiga bag'ishlangan" uchrashuvdagi nutqi-24.01.2017.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyasidagi nutqi.16.07.2021.
12. Shuhrat Ergashev "Jahon tarixi-Yangi davr" 1-qism-Toshkent-O'zbekiston -2013, 370-371-b